

YOSH O‘QITUVCHILAR FAOLIYATIDA UCHRAYDIGAN PEDAGOGIK QIYINCHILIKLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH USULLARI

Umaraliyev Diyorbek Nematjon o‘g‘li

University of Business and Science

Pedagogika mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada yosh o‘qituvchilarning kasbiy faoliyati jarayonida duch keladigan pedagogik qiyinchiliklar tahlil qilinadi. Unda ta’lim jarayonida yangi boshlovchi o‘qituvchilarning o‘z kasbiga moslashuvi, dars berishdagi muammolar, o‘quvchilar bilan muloqot, ota-onalar bilan ishlash, metodik yondashuvdagi kamchiliklar kabilar yoritiladi. Shuningdek, mazkur muammolarning yechimiga doir samarali usul va tavsiyalar keltiriladi. Maqola yosh mutaxassislarning professional o‘rishini qo‘llab-quvvatlash va ularni pedagogik faoliyatga muvaffaqiyatli jalb etishga qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *yosh o‘qituvchi, pedagogik faoliyat, kasbiy qiyinchilik, metodik yondashuv, muloqot, ta’lim sifati, mentorlik, kasbiy moslashuv.*

Yurtimizda ta’lim sohasini sifat jihatdan yanada rivojlantirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash mexanizmini takomillashtirish, soha o‘zgarishlari asosida bo‘ljak o‘qituvchilarni ma’naviy-kasbiy tarbiyalash tizimi komponentlari va tayanch kompetentsiyalari mazmunini takomillashtirish masalalariga alohida e’tibor berilmoqda. Har bir ijtimoiy tuzumda insonning ma’naviy yuksalishini ta’minlovchi ta’lim-tarbiya, ma’naviyat va ma’rifat kabi tushunchalar mavjud bo‘lib, ular pedagogika sohasidagi o‘zgarishlarni jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq holda o‘rganishni talab etadi. Bugungi kunda ta’lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri – malakali, bilimli, tashabbuskor yosh kadrlarni pedagogik faoliyatga jalb qilish va ularning professional o‘rishini ta’minlashdir. Ammo har qanday yangi sohaga kirgan shaxs kabi, yosh o‘qituvchilar ham dastlabki faoliyatlarida turli qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu qiyinchiliklar ularning pedagogik mahoratini shakllantirishda to‘siq bo‘lishi mumkin. Shuning uchun bu muammolarni aniqlab, ularni bartaraf etish yo‘llarini ishlab chiqish dolzarb vazifadir.

Bu borada aynan M.Ochilov yosh o‘qituvchilar faoliyatidagi muammolar, o‘qituvchining muomala odobi, o‘qituvchilik sha’ni va odobi haqida alohida to‘xtalib o‘tgan. Jumladan, M.Ochilov, M.Ochilova, N.Azizxo‘jaeva, J.G‘.Yo‘ldoshev, F.R.Yuzlikayev, M.Mahmudova, E.Ishonqulov, U.Sh. Begimqulov, L.T.Ahmedova, A.Xoliqov, M.Davletshin, J.Z.Qosimova, R.Mavlonova, M.Tojiyev, B.X.Xo‘jaev, G.U.Ahmedova, K.Riskulova, Z.Murodova kabi olimlar tomonidan oliy ta’lim tizimini axborotlashtirish, pedagog kadrlarni tayyorlash jarayoniga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etishga doir tadqiqotlar amalga oshirilgan[1].

Hozirda yosh pedagoglarning faoliyatida quyidagi qiyinchiliklar kuzatilmoqda:

- kasbiy moslashuvning sustligi;
- dars jarayonini samarali tashkil eta olmaslik;
- o‘qituvchilar bilan psixologik muloqotda muammolar;
- ota-onalar bilan ishlashda yetarli tajribaning yo‘qligi;
- nazariy bilimni amaliyotga tatbiq eta olishdagi qiyinchiliklar;
- metodik materiallardan foydalanish bo‘yicha tajribaning cheklanganligi.

Ushbu qiyinchiliklarning vujudga kelishida, o‘z navbatida, ma’lum sabab va omillar ham mavjuddir. Masalan, pedagogik faoliyatga to‘liq tayyorlanmaganlik, ilg‘or tajribalarni yetarli darajada o‘zlashtirmaganlik, shaxsiy ishonchsizlik va hayajon, ma’naviy-ruhiy tayyorgarlikning yetarli emasligi, rivojlangan mentorlik tizimining yo‘qligi yoki sustligi va boshqalar shular jumlasidandir. Yosh pedagoglarning faoliyatida uchraydigan qiyinchiliklarni quyidagi usullar orqali yengib o‘tishni tavsiya qilmoqchimiz:

Mentorlik tizimi – tajribali o‘qituvchilar tomonidan yosh kadrlarni yo‘naltirish, maslahatlar berish va doimiy nazorat qilish.

Kasbiy malaka oshirish kurslari – amaliy mashg‘ulotlar, treninglar, seminarlar orqali bilim va ko‘nikmalarni takomillashtirish.

Psixologik yordam – yosh o‘qituvchilarga o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirish, stressni yengish bo‘yicha psixologik maslahatlar.

Metodik qo‘llanmalardan foydalanish – ilmiy va amaliy adabiyotlardan doimiy foydalanish, zamonaviy yondashuvlarni o‘rganish.

Refleksiya va tahlil – har bir darsdan so‘ng o‘z faoliyatini tahlil qilish va xulosalar chiqarish.

Pedagog olim Komil Zaripov o‘qituvchining kasbiy mahorati mazmun va mohiyatini “Ilg‘or o‘qituvchi”, “Ijodkor o‘qituvchi”, “Novator o‘qituvchi” timsolida asoslaydi va shunday ta’riflaydi: “Ilg‘or o‘qituvchi” avvalo boshqa o‘qituvchilarga qaraganda o‘z ishiga mas’uliyat bilan qaraydi. Shu sohadagi ijobiy tajribalarni o‘rganib, o‘z darslarida, ta’lim muassasasidan va guruhdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarda qo‘llaydi. Shu orqali u ta’lim va tarbiya sohasida muayyan yutuqlarni qo‘lga kiritadi. “Ijodkor o‘qituvchi”da ham “Ilg‘or o‘qituvchi”dagi xususiyatlar bo‘lishi mumkin. Ularning jiddiy farqi shundaki, ilg‘or o‘qituvchi mavjud manbalarni o‘rganib, shular asosida ta’lim-tarbiya bo‘yicha muayyan ishlarni amalga oshirsa, ijodkor o‘qituvchi bor manbalarga tanqidiy ko‘z bilan qaraydi[2]. Ko‘p hollarda mavjud metodik yo‘l-yo‘riqlarga o‘z munosabatini bildirib, sharoit va vaziyat taqozosiga, o‘zining imkoniyatlariga qarab mavjud tartiblardan farqli zamonaviy metodik usullardan foydalanadi[3]. “Novator o‘qituvchi” esa o‘zining yaxlit pedagogik vosita va usullari mavjudligi bilan farqlanib turadi. Shu bilan birga novator o‘qituvchilarda ilmiy tahlil, o‘ziga tanqidiy ko‘z bilan qaray bilish xususiyatlari ham mavjud bo‘ladi. Ularning ko‘pchiligida g‘oyat murakkab, boshqalar o‘ziga ishonmaydigan sharoitlarda ham o‘z ishlarining to‘g‘ri ekanligiga ishonch bo‘ladi[4].

Yosh o‘qituvchilar ba’zan o‘z faoliyatida pedagogik faoliyatida vujudga keladigan favqulodda holatlarda tez va aniq hal etilishi lozim bo‘lgan kommunikativ muammolarga duch keladi. Bunday vaziyatlarda muloqotning kutilmagan holatlariga tayyor emasligini his qilishi mumkin. Bunday holatda o‘qituvchining aql-zakovati, pedagogik madaniyati, kasbiy tafakkuri, rivojlangan nutqi, so‘z boyligi, shuningdek, leksik va kasbiy-leksik jihatdan shakllanganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Umumiy suhbatlashish madaniyati va o‘quvchilar bilan kommunikativ faoliyatga moyilligi o‘qituvchi uchun asosiy omillar hisoblanadi.

Kasbiy faoliyatga moslashishning birinchi bosqichi, V.Senashenko nuqtayi nazaridan, kasb-hunar ta’limidir. Shuning uchun birinchi navbatda talabalar – bo‘lajak o‘qituvchilarning moslashuvini hisobga olish kerak. O‘qituvchi o‘zi uchun bo‘lajak darsning noyob xususiyatlarini va kommunikativ rejasini tuzishi mumkin. Unda darsning har bir pedagogik vazifasiga, kommunikativ vazifaning ma’lum bir usullari mos kelib, ularni hal qilishning o‘ziga xos yo‘nalishlari namoyon bo‘ladi. O‘quvchilar bilan bo‘lajak muloqotni modellashtirishning muhim sharti o‘qituvchi va

o‘quvchilarning o‘zaro emotsional birligi bo‘lib, u o‘qituvchiga darsning ehtimoliy atmosferasini oldindan ko‘ra bilish imkoniyatini beradi: bo‘lajak darsda o‘quvchilar jamoasi bilan ro‘y berishi mumkin bo‘lgan turli vaziyatlarni oldindan ko‘ra olish; o‘quvchilar bilan o‘zaro demokratik va erkin munosabatning har xil darajalarini tasdiqlash, uni rivojlantirish istiqbollari belgilash; darsda o‘quvchilarning bilishga bo‘lgan qiziqishini va ijodiy kayfiyatini vujudga keltirish. Ilg‘or o‘qituvchilar ish tajribasining tahlili shuni ko‘rsatadiki, dars jarayonida o‘quvchilar bilan bo‘lajak muloqotni modellashtirish juda muhim[5].

Xulosa qilib aytganda, yosh o‘qituvchilarning faoliyatida uchraydigan pedagogik qiyinchiliklar ularning kasbiy shakllanishida muhim omil sanaladi. Mazkur qiyinchiliklarni o‘z vaqtida aniqlash va samarali usullar bilan bartaraf etish, nafaqat ularning kasbiy o‘sishiga, balki ta‘lim sifati va samaradorligiga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Bu borada mentorlik, psixologik qo‘llab-quvvatlash, zamonaviy metodik yondashuvlarni o‘zlashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, yosh o‘qituvchining o‘z ustida doimiy ishlashi, yangiliklarga ochiqqligi ham muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. N.SH.Jumanova “Yosh o‘qituvchilar faoliyatida pedagogik qiyinchiliklar va ularni bartaraf etishning psixologik asoslari”. “Maktabgacha va maktab ta‘limi” (Pedagogik, psixometodologik va tabiiy fanlarga ixtisoslashgan ilmiy jurnal). №1/2025. 2025-yil, yanvar, №1-son. 285-b.
2. A. Xoliqov. “Pedagogik mahurat”. Toshkent: “Iqtisod-moliya”, 2011, 24-b.
3. K.Zaripov. “O‘qituvchi malakasini oshirishda maktab rahbarining roli”. Toshkent: “O‘qituvchi”, 1993, 97-b.
4. G.Davlatova. “Psixologik moslashuvning nazariy va amaliy asoslari”. Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2017, 45–47-b.
5. M. Ochilov, N. Ochilova. “O‘qituvchi odobi”. Toshkent: “O‘qituvchi”, 1997, 6-b.